



**Buxoro shahar xalq ta'limi muassasalari
faoliyatini metodik ta'minlash va
tashkil etish bo'limiga qarashli
23-umumiy o'rta ta'lim maktabining
matematika fani o'qituvchisi**

O'rayeva Gulshan Saidaxmedovnaning

5 "A"- sinfida o'tkazgan ochiq dars

mazmunnomas.

“Agar siz matematikani juda murakkab deb o’y’lasangiz, hayotning qanday murakkab ekanligini bilmas ekansiz”

5-”A” sinf

matematika darsi

Mavzu: Misollar yechish

Dars maqsadi:

- ta’limiy maqsad:** o’quvchilarning aralash sonlar haqidagi tushunchasini mustahkamlash.
- tarbiyaviy maqsad:** o’quvchilarni ongli intizom ruhida tarbiyalash.
- rivojlantiruvchi maqsad:** o’quvchilarda mustaqil ishlash qobiliyatini va hozirjavoblikni oshirish.

Shakllantirilayotgan kompetensiyalar:


Matematik bilimlarni amaliyotda qo’llash, mantiqiy fikrlash.

Amaliyotga oshirish usuli: amaliy masalalarni yechish. Nutqda matematik terminlarni savodli qo’llay olish. Tashabbus ko’rsatish, tadbirkorlik, masalalar yechishda faoliyat ko’rsatish bo’yicha bilimlarni oshirish. Aqliy hujum.

Dars turi: mustahkamlash.

Dars jihozi: tarqatmalar, AKT, darslik.

DARSNING BORISHI



I. Tashkiliy qism:

2014- yil__ “Sog’lom bola yili”

II. O’tilgan mavzuni so’rash:

Uy vazifasini tekshirish:

№19 Qo’shishni bajaring va natijani aralash son ko’rinishida ifodalang:

$$a) \frac{3}{5} + \frac{4}{5} = \frac{7}{5} = 1 \frac{2}{5}$$

$$b) \frac{9}{12} + \frac{14}{12} = \frac{23}{12} = 1 \frac{11}{12}$$

$$d) \frac{7}{8} + \frac{5}{8} = \frac{12}{8} = 1 \frac{4}{8}$$

$$e) \frac{13}{25} + \frac{14}{25} = \frac{27}{25} = 1 \frac{2}{25}$$

$$f) \frac{13}{19} + \frac{11}{19} + \frac{7}{19} = \frac{31}{19} = 1 \frac{12}{19}$$

№20 Kilometrda ifodalang:

$$1 \text{ km} = 1000 \text{ m}$$

a) 6 km 200 m = b) 18 km 750 m = c) 11 km 925 m =

javobi: a) $6 \frac{200}{1000} \text{ km}$

b) $18 \frac{750}{1000} \text{ km}$

d) $11 \frac{925}{1000} \text{ km}$

”Aqliy hujum”

Savollar:

- 1) Ulush deb nimaga aytiladi? (Butunning teng bo'laklariga ulush deyiladi.)
- 2) Oddiy kasr deb nimaga aytiladi? (Surat, maxraj va kasr chizig'idan iborat bo'lgan yozuvga aytiladi.)
- 3) Kasrlar necha xil bo'ladi? (Kasrlar 2 xil bo'ladi: to'g'ri va noto'g'ri kasr)
- 4) Qanday kasr to'g'ri kasr deb ataladi? (Surati maxrajidan kichik bo'lgan kasrga to'g'ri kasr deyiladi.)
- 5) Qanday kasr noto'g'ri kasr deyiladi? (Surati maxrajidan katta bo'lgan yoki teng bo'lgan kasrga noto'g'ri kasr deyiladi.)
- 6) Qanday kasrlar 1 dan kichik bo'ladi? (To'g'ri kasrlar 1 dan kichik bo'ladi.)
- 7) Noto'g'ri kasr 1 dan kichik bo'lishi mumkinmi? (yo'q, noto'g'ri kasr 1 dan kichik bo'lmaydi. Noto'g'ri kasr 1 dan katta yoki 1 ga teng bo'ladi.)
- 8) Aralash son deb qanday songa aytiladi? (Butun va kasr qismi ajratib yozilgan sonlarni aralash sonlar deyiladi.)
- 9) Aralash sonning butun va kasr qismi qanday topiladi? (Noto'g'ri kasrning suratini maxrajiga bo'lib, aralash sonning butun va kasr qismi topiladi.)
- 10) Aralash son noto'g'ri kasrga qanday aylantiriladi? (Butun qismi maxraj bilan ko'paytiriladi va ko'paytmaga surat qo'shib, suratga yoziladi. maxrajning esa o'zi yoziladi.)

Matematik diktant:

1) $3\frac{4}{5}$ (uch butun beshdan to'rt)

2) $8\frac{1}{3}$ (sakkiz butun uchdan bir)

3) $15\frac{7}{9}$ (o'n besh butun to'qqizdan yetti)

III. Yangi dars mazmuni:

№10 Qo'shishni bajaring va natijani aralash son ko'rinishida ifodalang.

a) $\frac{3}{7} + \frac{6}{7} = \frac{9}{7} = 1\frac{2}{7}$

b) $\frac{11}{12} + \frac{4}{12} = \frac{15}{12} = 1\frac{3}{12}$

d) $\frac{11}{13} + \frac{9}{13} = \frac{20}{13} = 1\frac{7}{13}$

e) $\frac{23}{29} + \frac{14}{29} = \frac{37}{29} = 1\frac{8}{29}$

f) $\frac{13}{17} + \frac{11}{17} + \frac{8}{17} = \frac{32}{17} = 1\frac{15}{17}$

№11 Soatlarda ifodalang: $1 \text{ soat} = 60 \text{ minut}$ $1 \text{ minut} = \frac{1}{60} \text{ soat}$

a) $2 \text{ soat } 34 \text{ minut} =$

b) $4 \text{ soat } 43 \text{ minut} =$

d) $6 \text{ soat } 14 \text{ minut} =$



Javob: a) $2\frac{34}{60}$ (soat)

b) $4\frac{43}{60}$ (soat)

d) $6\frac{14}{60}$ (soat)

№12

Oila bir haftada 12 kg kartoshka iste'mol qildi. Oila bir kunda o'rtacha necha kg kartoshka iste'mol qilganini toping. Javobni aralash son ko'rinishida ifodalang.



1 haftada _____ 12 kg

1 kunda _____ ? kg yechish: 1 haftada= 7 kun

$$1 \text{ kunda : } \frac{12}{7} = \frac{7 + 5}{7} = \frac{7}{7} + \frac{5}{7} = 1 + \frac{5}{7} = 1 \frac{5}{7}$$

Javob: Oila bir kunda o'rtacha $1 \frac{5}{7}$ kg kartoshka iste'mol qiladi.

IV. Mustahkamlash

№13

Sim uzunligi _____ $2 \frac{9}{15}$ (m)

yechish: $2 \frac{9}{15} = \frac{39}{15}$ (m)

bo'lak uzunligi _____ $\frac{1}{15}$ m



$n = 15 : \frac{1}{15} = 39$ (ta)

hosil bo'ldi _____ n ta-?


Javob: 39 ta bo'lak sim bo'ldi.

№14 Rasmdan foydalanib, noto'g'ri kasrni aralash son ko'rinishida yozing:

a) $\frac{7}{2} = 3 \frac{1}{2}$




b) $\frac{19}{8} = 2 \frac{3}{8}$



$$d) \frac{21}{4} = 5 \frac{1}{4}$$

$$e) \frac{11}{3} = 3 \frac{2}{3}$$



V. Baholash

VI. Uyga vazifa: №19-20-21-22

O'qituvchi: Urayeva G.S